



THE ESSENCE OF USING THE EXPERIENCE OF THE OLDER GENERATION BASED ON THE VALUE APPROACH

Nilufar Niyozova

Applicant

Namangan State University

Namangan, Uzbekistan

E-mail: N_iyozova@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: older generation, old age status, third age pedagogy, social, processual life experience, religious knowledge.

Received: 13.03.25

Accepted: 15.03.25

Published: 17.03.25

Abstract: This article is a process in which the development and well-being of any society is conditioned by the provision of a social and spiritual environment in it, the development and strengthening of certain values precisely through the values. The continuation of the connection between generations is determined by the effective activity of a person in public life associated with ensuring social and spiritual stability, the level of influence on the social development of society, its place and position in life. The level is directly related to the fact that the force or group that creates conditions for the improvement of the individual is in an impartial and healthy mood.

QADRIYATLI YONDASHUV ASOSIDA KEKSA AVLOD TAJRIBASIDAN FOYDALANISHNIING MOHIYATI

Nilufar Niyozova

mustaqil tadqiqotchi

Namangan davlat universiteti

Namangan, O'zbekiston

E-mail: N_iyozova@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: keksa avlod, keksalikning maqomi, uchinchi yosh pedagogikasi, ijtimoiy, jarayon hayotiy tajribalari, diniy bilim.

Annotatsiya: Ushbu maqola har qanday jamiyatning rivojlanishi va farovonligi undagi ijtimoiy-ma'naviy muhitning ta'minlanganligi bilan, ma'lum bir qadriyatlarning rivojlanishi va mustahkamlanishi bilan shartlangan jarayondir, aynan qadriyatlar vositasida

avlodlar o'rtasidagi muloqot davom etishini shaxsning ijtimoiy-ma'naviy barqarorlikni ta'minlanishi bilan bog'liq ijtimoiy hayotdagi samarali faoliyati, jamiyatni ijtimoiy taraqqiyotiga ta'sir darajasi, uning hayotdagi o'rni va mavqeyi darajasi bevosita shaxs kamolotiga sharoit yaratuvchi kuch yoki guruhning xolis va sog'lom kayfiyatda ekanligiga bogliqliligi to'g'risida bayon etilgan

СУЩНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОПЫТА СТАРШЕГО ПОКОЛЕНИЯ НА ОСНОВЕ ЦЕННОСТНОГО ПОДХОДА

Нилуфар Ниёзова

Соискатель

Наманганского государственного университета

Наманган, Узбекистан

E-mail: N_iyozova@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	старшее поколение,	статус старости,	педагогика третьего возраста,	социальный, процессный жизненный опыт,	религиозные знания.	Аннотация:	Данная статья
						представляет собой процесс, в котором развитие и благополучие любого общества обусловлено обеспечением в нем социально-духовной среды, развитием и укреплением определенных ценностей именно через посредство ценностей. Продолжение связи между поколениями определяется эффективной деятельностью человека в общественной жизни, связанной с обеспечением социальной и духовной стабильности, уровнем влияния на социальное развитие общества, его местом и положением в жизни. Уровень напрямую связан с тем, что сила или группа, создающая условия для совершенствования личности, находится в беспристрастном и здоровом настроении.	

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev o'z ma'ruzalarida farzand tarbiyasida keksa avlod vakillarining roli haqida gapirib, «Ilgari «Bir bolaga yetti mahalla ota-ona» degan maqolga amal qilib yashardik. O'g'il- qizlarimizning axloq-odobi, o'qishi uchun nafaqat ularning ota-onalari, avvalo, mahalladagi nuroniylar, kayvoni keksalar, ziyolilar o'zini mas'ul va javobgar deb bilardi. Shuning uchun ham mahallalarimizda urush-janjal, bezorilik, ichkilikbozlik qilib yuradigan yoshlar, oilaviy ajrimlar kam bo'lardi. Keksav avlod vakillari yoshlarni mehnatga, o'z uyini, ko'chalar, guzar va maydonlarni ozoda tutishga o'rgatardi» [1] deb yoshlarda oilaviy qadriyatlarimizga zid bo'lgan turli ma'naviy tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishda, oilalarda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishda keksa

avlod vakillarining roli beqiyosligini ta'kidlaydi. Ma'naviy, diniy va axloqiy qadriyatlar ustun hisoblangan Sharqda, shuningdek, texnologik taraqqiyot, individuallik tobora rivojlanib borayotgan G'arbda keksalikka, keksa avlodning tajribasidan foydalanishning ijtimoiy ahamiyatiga nisbatan qarashlar turlicha ekanligi hech birimizga sir emas.

Bugungi axborotlashgan jamiyat taraqqiyotining eng asosiy vazifasi yoshlarni zamonaviy talablarga javob bera oladigan, ma'nan va jismonan barkamol qilib tarbiyalash, «ommaviy madaniyat»ning turli ko'rinishlariga qarshi immunitetni hosil qilish, tashabbuslarini qo'llab quvvatlash va shu bilan birga ularning ta'lim va tarbiya olishlariga yaxshi sharoit yaratib berishdir.

Ma'lumki, keksa avlod doim o'zlari yashagan davrlari qanchalik yaxshi bo'lganligini takrorlashni yaxshi ko'radi. Bugungi avlodning ayrimlari esa o'sha davrning odamlarini zamondan ortda qolgan va «hanuzgacha sovet tizimi tafakkuriga o'ralib qolgan» avlod sifatida ko'rishadi. Ba'zida yosh avlod vakillari ichida «keksalarning maslahatlari, ularning hayotiy tajribalari foydasiz» deb hisoblaydiganlar ham uchrab turadi. Aslida avlodlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar jamiyatning asosiy mazmunini tashkil etadi. Bular oilaviy, axloqiy, estetik, huquqiy, diniy, siyosiy, ishlab chiqarish faoliyatlari va ularga mos keluvchi munosabatlarda o'z aksini topadi. Gerontopedagogika tajribasining bugungi kunda jamiyatdagi o'rni quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- jamiyatning o'z milliy tarixini saqlab qolish, uni asrab-avaylash, boyitish va kelgusi avlodga yetkazishda keksa avlod vakillarining hayotiy tajribasi, o'git va hikmatlari muhim hisoblanib, bugungi yangilik zahirida o'tmish tajribalari yotadi;

- keksa avlod vakillari bashariyat taraqqiyotining barcha davrlarida farzandlar tarbiyasi, ularning vatanparvar, ma'naviy intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishida alohida o'rin egallaydi;

- inson hayot haqidagi ilk tasavvurlarini ta'lim o'chog'ining asosiy maskani oilada kattalar tajribasi, ular yaratgan qonun-qoidalar, halollik, mehr-oqibat,

rostgo'ylik, xushmuomalalik kabi sifatlarni shakllantiradi va qalbiga mustahkam joylaydi, bobo-boviga taqlid qilish orqali kuchli qadriyatlarga ega bo'ladi;

- ta'lim muassasalari va ijtimoiy hayotda qo'llaniladigan tarbiyaga oid metodlarni (namuna ko'rsatish, tushuntirish, nasihat qilish, hayotiy tajriba) qo'llashda keksa avlod an'analari va ma'naviy merosiga tayaniladi;

- ta'lim jarayonining barcha bosqichida o'quvchilarda bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishda keksa avlod tajribalariga tayaniladi. Ta'lim-tarbiya avlodlar o'rtasidagi vorislik asosiga quriladi.

Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishda ko'p yillik tajribaga ega, ijtimoiy faol, mehnatsevar, mas'uliyatli keksalarimiz kamarbasta bo'lib turibdi. Avlodlar o'rtasidagi hamkorlik va izchillikni ta'minlagan holda gerontopedagogika sohasini rivojlantirish har doimgidan ko'proq ahamiyat kasb etadi.

Umrning yuqori bosqichiga yetib kelgan inson ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy munosabatlarning guvohi va ishtirokchisiga aylanadi. Ba'zilar mehnat faoliyatini yakunlab yaxshi dam olishni xohlasa, ikkinchi birlari tirikchilik tashvishlaridan qutulgach, o'zlarining sevimli mashg'ulotlari bilan shug'ullanish uchun vaqt ajratishni xohlashadi. Uchinchi guruh vakillari ish faoliyatini davom ettirish uchun jismonan ojizlik qilsa, yana birlari oiladagi sharoit sabab uni davom ettirishga majbur bo'ladi. Aksariyat hollarda keksa avlod nafaqa yoshida ayni hayotiy tajriba bilan quvvatlangan jismonan baquvvat holatda bo'ladi. Ular bilan bir qatorda, jismoniy imkoniyatlari cheklangan, intellektual salohiyati bir muncha zaif bo'lgan yoshi ulug'larning o'zaro jamiyat bilan integratsiyasini ta'minlash bugungi kun gerontopedagogikasining eng asosiy vazifasi hisoblanadi.

Keksa avlod vakillarining bag'rikengligi, uzoqni ko'ra olish qobiliyati, ilm va ma'rifatda donoligi, muomalada xulq-atvorining go'zalligi, turmushni yuritishdagi ozoda va pokizaligi, ulardagi halollik, olijanoblik, kamtarlik, shukronalik fazilatlarini, oiladagi mo'tadil, iliq iqlimni yaratish, shu bilan birga o'rnida qattiqqo'l va boshqaruvdagi tajribalaridan bugungi axborotlashgan jamiyatda talabalarni axloqiy negizlari buzilishiga olib keladigan turli yot g'oyalardan asrash, ularni ijtimoiy hayotda uchraydigan turli muammolarga yechim topishga o'rgatish, huquq va erkinliklarini himoya qilishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Bizningcha, jamiyatda o'z namunali hayotiy tajribasi hamda nazariy ilmning sirlarini egallagan keksa avlod ibrat, namuna va tarbiya manbalari asosida yoshlarni axloqan pok, vatanparvar, ajdodlar an'anasiga sodiq, tashabbuskor, sabr-matonatli, shirinso'z, halol va sog'lom e'tiqodga ega insonlar etib tarbiyalashda ijobiy samaraga erishish mumkin. Shu sababdan, mamlakatimizda ta'lim tizimidan tortib, ijtimoiy hayotda o'zining katta ahamiyatiga ega bo'lgan «ustoz-shogird» an'analari qanchalik samarali tizim ekanligi, bunda yosh avlodning nafaqat ma'lum bir hunar yoki bilimning, aslida hayotning sir-asrorlarini o'rganishlarining fundamental asosi hisoblanadi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar mahalladan oila va shaxsga yetkazib berilishi hamda diniy e'tiqod, an'ana, odatlarning saqlanib qolishiga yordam beradi. Nafaqat shaxsiy namuna, balki kuzatish, o'rganish, nazorat va monitoring faoliyati amalga oshadi. Jumladan, alohida shaxs hayotining muayyan bosqichlari jamoaning barcha a'zolari tomonidan kuzatuvda, nazoratda bo'ladi. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish bo'yicha O'zbekistonda to'plangan katta

tajribani puxta o'rganishda keksa avlod tajribasi va ibratiga alohida urg'u berish zarur. Ular mamlakatimizning bu borada erishgan yutuqlari, belgilangan vazifalarni izchillik bilan amalga oshirish barqaror fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga intilayotgan dunyoning ko'plab davlatlari uchun namuna bo'lib xizmat qiladi.

Yurtimizda qadimdan milliy urf-odat va an'analarimizni yosh avlodga yetkazish, ularni jismonan baquvvat, ma'nan yetuk, mehr-oqibatli insonlar qilib tarbiyalashda oila muhiti muhim o'rin egallab kelgan. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek «Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, vatan tinch bo'ladi» [2].

Ta'lim va tarbiya tizimining poydevori, tamal toshi oiladan boshlanadi. Har bir oilaning o'ziga xos ta'sir doirasi mavjud bo'lgani kabi milliy qadriyatlarni saqlab qolishda, oilalar muhitining yaxshi va yomon tomonga o'zgarishida, bola tarbiyasida bobo va buvilarning roli muhim ahamiyat kasb etadi. Oilada kattalarning o'zaro samimiy muloqoti, farzandlari bilan yaqin, do'stona munosabatda bo'lishi, ularning kelajakdagi orzu-maqсадlarini tushunib olishlari, farzandlarning sog'-salomat voyaga yetishlari uchun asos bo'ladi.

Oila muhiti – bu qandaydir tarbiya vositasi emas, balki ota-onalarning va katta yoshdagi kishilarning har taraflama olib boradigan tarbiyaviy ish natijalari, oila a'zolarining o'zaro yuksak axloqiy munosabatlarining yig'indisi va nihoyat, kattalarning bolalarga ijobiy ta'sir ko'rsatish namunasi natijasidir. Oilada totuvlik, o'zaro hurmat, mehr-muhabbat, kelishuvchilik kabilar ota-onalar obro'sini oshiradi, ota-onalar bilan bolalar o'rtasida ruhiy muhit yaxshilanishi va ularning kamolotga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Chunki, aynan oila muhitida muqaddas an'analar, Vatanga muhabbat, insonparvarlik, mehnatsevarlik, halollik, ilm olishga ishtiyoq, qadriyatlarga hurmat, mas'uliyat va madaniyat ko'nikmalari shakllanadi. Tadqiqotimiz davomida o'rganilganidek ko'plab rivojlangan mamlakatlarda bolalarning ta'limi va tarbiyasi maktabgacha ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi hamda borish majburiy hisoblanmaydi. Yurtimizda bu tizim azaliy qadriyatlarga ko'ra oilaning kattalari – bobolar va buvilar mas'ulligida amalga oshiriladi.

Tahlillardan kelib chiqib keksa avlod tajribalarining oiladagi tarbiyaviy funksiyalariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- avlodlar vorisligini ta'minlash;
- hayot haqidagi dastlabki bilimlarga o'rgatish;
- sof diniy e'tiqodni kamol toptirish;
- estetik, jinsiy, huquqiy, ekologik, mehnat tarbiyasiga o'rgatish;
- milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash;
- yaxshi fazilatlar, halollik, xushmuomalalikka o'rgatish;

- ma'naviy-axloqiy, ruhiy va jismoniy kamolot uchun zarur bo'lgan ijobiy fazilatlarni shakllantirish.

Oiladagi tarbiya ta'limning boshlang'ich qismi, eng asosiy bo'g'inidir. Bu davrda bolalar umr davomida oladigan bilimlarga zamin hozirlaydi, ijtimoiy muhit haqida dastlabki tasavvurlarga ega bo'ladi, rivojlantiradi, qo'llab-quvvatlaydi va rag'batlantiradi.

E'tirof etish lozimki, nuroniy otaxonlar va onaxonlar, shuningdek, faol xotin-qizlarning «Oilaviy munosabatlarni mustahkamlash va inson hayotida oilaning o'rnini yanada oshirish» yuzasidan O'zbekiston yoshlariga Murojaati qabul qilingan bo'lib, har haftaning shanba kuni mahallalarda «Axil oila kuni» deb e'lon qilingan.

Shu o'rinda aytish lozimki, keksa avlod vakillarining davlat va jamiyat hayotida, diniy qadriyat, milliy urf-odat va an'analarni rivojlantirishdagi ijtimoiy faolliklarini oshirish maqsadida joriy yilning o'zida mahallalarda qator ma'naviy- ma'rifiy va targ'ibot tadbirlari tashkil etib kelinmoqda. Bunday ijobiy ishlar qatorida yoshlarni turli huquqbuzarliklardan qaytarish, profilaktik hisobda turgan 3 274 nafar yoshlarni sog'lom muhitga jalb etish maqsadida shu toifadagi yoshlar ishtirokida 7 mingdan ortiq ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilgan va ularning aksariyati keksa avlod vakillari ishtirokida, ularning hayotiy tajribalarini targ'ib qilish va o'zlari haqida turli hikoyalarni, kechinmalarni aytib o'tganligi, eng muhimi, yoshlar tomonidan bu katta qiziqish bilan kutib olinganligini qayd etmoq joiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishi// 2021-yil 19-yanvar

2. <https://www.xabar.uz/siyosat/prezident-oila-kichik-vatan>

3. Безрукова В.С. Основы духовной культуры (энциклопедический словарь педагога). Екатеринбург. 2000. 701-937 с.

4. Психолого-педагогический словарь / Сост. Рапацевич Е.С. Минск: Современное слово, 2006. 928 с. С.367.

5. Загвязинский В.И., Емельянова И.Н. Педагогика: учебник для студ. учреждений высш. проф.Образования. М.: 2012. 17 с

6. Navoiy A. Hayrat ul-abror. – T.: G'afur G'ulom nashriyoti. 1974. 55-bet.